

MAKTABGACHA TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM RIVOJLANTIRISH VA YANGICHA PEDAGOGIK YONDASHUV

Fayziyeva Azizaxon Karim qizi

Sirdaryo pedagogika kolleji o‘qituvchisi,
Guliston Davlat Pedagogika Instituti magistranti.

azizafayziyeva51@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada yurtimiz ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta'limi rivojlanirish, 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limi rivojlanirish konsepsiyasining mohiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *ta'lim, inklyuziv ta'lim, pedagogik tahlil, qonun, qaror, nogironlik, nogironligi bor shaxslar.*

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о реформах в системе образования нашей страны и их значении, развитии инклюзивного образования, сути концепции развития инклюзивного образования в системе государственного образования в 2020-2025 годах.

Ключевые слова: *образование, инклюзивное образование, педагогический анализ, закон, решение, инвалидность, инвалиды.*

ANNOTATION

The article talks about the reforms in the education system of our country and their importance, the development of inclusive education, the essence of the concept of the development of inclusive education in the public education system in 2020-2025.

Key words: *education, inclusive education, pedagogical analysis, law, decision, disability, persons with disabilities.*

KIRISH.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida 2017-yil sentyabr oyida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan taklif: “Yoshlar huquqlari to‘g‘risida”gi Xalqaro Konvensiya loyihasi ishlab chiqildi. “Yoshlar huquqlari bu eng avvalo birinchi navbatda, ularning tinch va sog‘lom yashash hamda ta’lim olishga bo‘lgan huquqlari hisoblanadi....unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo‘lib voyaga

yetishi, sifatli va mukammal ta’lim olishini ta’minalash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi”[1].

Konstitutsiyamizning 41-moddasi hamda Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (2020-yil 23-sentyabr) 5-moddasi qoidalariga asosan ta’lim olishda barcha teng huquqlidir[2]. Bu qonun inklyuziv(uyg‘unlashgan) ta’lim tushunchasi kiritilganligi bilan ham avvalgi tahriridan farqlanib turadi va bu qonunga muvofiq Inklyuziv ta’lim sohasidagi vakolatli organ etib Vazirlar Mahkamasi belgilangan. Shu nuqtai nazardan yurtimizda ta’limning inklyuziv shaklini ham birdek rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv termini inglizcha-uyg‘unlashish, hamkorlikdagi ta’lim ma’nosini berib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta’lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta’lim – barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqlilagini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta“minlashdir.

Ayni damda barcha mamlakatlarda ham inklyuziv ta“limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog‘liq bo‘lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto‘g‘ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya’ni inklyuziv ta’limni e’tirof etgan holda, aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galadagi masaladir.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minalash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi. Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha xam bir qator qaror va ishlar ilgari surilmoxda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi.[3]

Ushbu konsepsiaga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “ILK QADAM” o‘quv dasturida ham inklyuziv ta’limga urg‘u berib o‘tildi

MUHOKAMA

2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alovida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi.

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan:

2020 — 2022-yillar davomida:

inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish;

inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish;

inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlanishi;

inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish;

alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantirish;

alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alovida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish;

2023 — 2025-yillar davomida: inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiyligi o‘rtalagi ta’lim muassasalarida joriy qilish;

alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

inklyuziv ta’limda o‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish;

inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘rish;

o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari soni optimallashtirish belgilab qo‘yildi[3]

Maktabgacha ta’lim Davlat o‘quv dasturida har bir bolaning ta’lim, tarbiya, rivojlanish, himoya va faol ishtirok etishdan teng foydalanish huquqlarini tan oladigan inklyuziv o‘quv dasturi hisoblanadi. Davlat o‘quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim olish, rivojlanish va muloqotda qo‘shimcha yordam ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolani ta’lim olishi va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash – bu MTTning direktori, pedagog va mutaxassislari tomonidan tashkil etiladigan jamoaviy ish.

Zarur bo‘lganda, maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik jamoasi va rahbariyati tor mutaxassislarni jalb qilgan holda, bola rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolaning yakka tartibdagi rejasini 2 yaratadi.

Inklyuziv yo‘nalishdagi ta’lim va tarbiya jarayoni davlat o‘quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, uning asosida individual-moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Bunday individual inklyuziv dasturda alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning ta’lim olishi, rivojlanishi, ishtiroki va farovonligi uchun barcha mumkin bo‘lgan to‘sirlarni bartaraf etadigan o‘quv muhiti va o‘qitish usullarini moslashtirish zarur. [4]

NATIJA

Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlarini va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim olishi, ijtimoiylashishi, maxsus yordamga ega bo‘lishi, qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta’limning bir qator foydali jixatlari bilan birga uning samaradorligiga ta’sir etayotgan bir qator kamchiliklarini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin(1-jadval) [5]

FOYDA	KAMCHILIKLAR
Qobiliyati va imkoniyatlaridan qat'i nazar, barcha talabalar uchun teng huquqlar	Inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun moddiy-texnik bazaning yetishmasligi
O'qitish jarayonida repetitorning individual yordami	Maxsus ehtiyojli bolalar uchun zarur bo'lgan o'qitilgan pedagoglar, psixologlar va boshqa mutaxassislarning yetishmasligi
Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni egallash	Standart o'quv rejasi ayrim ehtiyojli bolalar uchun mos emas, shuning uchun qayta ko'rib chiqish va modernizatsiya qilishni talab qiladi
Oddiy bolalar hamdardlik, sabr-toqat, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar	O'qituvchilar alohida ehtiyojli bolalarning bilimlarini xolisona baholaydilar, shuning uchun bilimlarni baholash ko'pincha to'g'ri emas
Sifatli ta'lim olish va kelajakda - universitetda o'qish, kasbni egallash, jamiyatning to'laqonli va mustaqil a'zosi bo'lish imkoniyati.	Sog'lom bolalar va ularning ota-onalaridan nogironlarga nisbatan do'stona va ko'pincha dushmanona munosabat

1-jadval

XULOSA

Inklyuziv ta'limning asosiy g'oyasi – bu bolani bog'cha yoki maktabga olib kelish emas balki, maktab va bog'chalarni ularga moslashtirishdir.

Inklyuziv talimning afzalliklari nogironligi bor bolalar kamsitilishi oldini oladi, o'zlarini hech kimdan kam his qilmaydi, dunyo qarashi kengayadi. Yetarlicha g'amxo'lik va mutaxassislar diqqat- e'tibori orqali ham kognitiv, ham ruhiy, ham jismoniy rivojlanib boradi.

Sog'lom bolalarda imkoniyati cheklangan bolalarni qo'lla- quvvatlash, yordam berishga intilish, mexr-shavqat, insonparvarlik hissi tarbiyalanadi.

Yordamga muhtoj insonlarga e'tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. 2020-yil 30-sentabr.(<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm>)
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz
3. www.scientificprogress.uz
4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanma// Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individuallashtirish. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan inklyuziyasi//b. 44//Toshkent//2020
5. www.ares.uz b.684